

## **KIMYO DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING QO'LLANILISHI**

**Jo`raqulova Sitorabonu Baxodirovna**  
**Buxoro viloyat, Buxoro tuman 33-maktab kimyo fani o`qituvchisi,**  
**O`zbekiston Respublikasi**

Tarbiya jarayoni pedagogik faoliyatning asosiy tarkibiy qismi bo`lib, o`rgatish va rivojlanishning umumiy jarayoniga integratsiyalanishini talab etadi. Zamonaviy hayotimizda kechayotgan o`zgarishlar ta`lim, pedagogik texnologiyalarning yangi usullarini rivojlantirishni taqozo etib, asosiy e'tibor o`quvchilarda mustaqil fikrash, olgan bilimlarini qo'llash, oldinga qo'yilgan maqsadga erishish kabi ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, olingen bilim sifati axborotni qabul qilish usuli va o`quvchining faolligiga bevosita bog'liq bo'ladi. O'quv jarayonida o`quvchi:

o`zi o`qib olsa, 10%

eshitib o`rgansa, 20%

ko`rib o`rgansa, 30%

o`zi bajarib o`rgansa, 90% o`zlashtirishga ega bo'ladi.

Interfaol usul o`quv faoliyatni tashkil etishning o`ziga xos shakli hisoblanadi. U bilim sifatini oshirish bilan bir qatorda o`quvchilarning ishlash qobiliyatini, mehnatsevarligini, fan bilan qiziquvchanligini oshirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu usulda o`quv jarayonining yuqori darajadagi sharoitlar yaratilib, unda o`quvchi o`zining qobiliyatini, intellektual mustaqilligini his eta boshlaydi, bu esa o`quv jarayonini mahsuldarligini yanada oshiradi.

Bizningcha, dolzarblik, o`quv jarayonida o`quvchilar ba'zi qiyinchiliklarga uchrashidan kelib chiqadi. O`quvchilarda ma'lumotni umulashtirish, zarurini ajratish, turli faktlarni solishtirish, taqqoslash, ularni baholash kabi ko'nikmalar yetarlicha rivojlanmagan. An'anaviy darslarda o`quvchi ko'pincha o`qituvchi bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Interfaol darsda esa, o`quvchilarda o`zining fikrini bayon etish imkoni bo'ladi.

Hozirgi vaqtida bilimdon bola axborot bilan ishslash malakasiga ega bo'lishi, mustaqil ta`lim olish ko'nikmasini shakllantira olishi, o`zining faoliyatini motivatsiyalashi kerak, bu esa oxir oqibat uning jismoniy, intellektual va ma'naviy sog'lom bo`lib yetishiga kafolat beradi. O`quvchilarga nafaqat bilim berish kerak, balki o`zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyatda va kundalik hayotida

qo'llashni o'rgatish, katta o'zgarishlarga uchrayotgan hayotga moslashish qobiliyatini shakllantirishga sharoit yaratish kerak.

Turli qobiliyat va ko'nikmaga ega bo'lgan, ijtimoiy kelib chiqishi turlicha bo'lgan o'quvchilardan tarkib topgan sinfda dars berishning yangi usul va vositalarini izlash, an'anaviylarini takomillashtirish, darsni tashkil etishning samarali shakllarini yaratish kerak. Interfaol usullarning qo'llanilishi mana shu muammolarni hal etishga yordam beradi, bunda har bir o'quvchiga o'zining faolligini, ijodkorligini namoyon etishga sharoit yaratiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, tanqidiy fikrlash metodikasi, yangi informatsion texnologiyalar, internet-resurslar o'quv jarayoniga yangicha yondashuvni amalga oshirishga imkon beradi. Interfaol metodlarning qo'llanilishi faoliyat va ko'rgazmalilik, sistematiklik va ketma-ketlik kabi pedagogik prinsiplarga asoslanadi va shunga asosan har bir o'quvchi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

1. Mustaqil fikrlash
2. Ma'lumotlar bilan samarali ishlash
3. Ob'ekt va jarayonlarni modellash va loyihalash
4. Kerakli paytda qaror qabul qilish va uni bajarish
5. Javobgarlikni his etish
6. Uzluksiz ta'lim prinsiplariga amal qilish

Har bir darsga tayyorgarlik ko'rayotgan kimyo o'qituvchisi o'ziga savol berishi kerak - o'quvchilar uchun nima muhimroq: kimyoviy qonunlarni o'rganishmi yoki ularni o'rganib turib, o'zini boyitish va anglash hamda bu ulkan dunyoda o'zining o'rmini bilishmi? Bilimlar o'zlashtirilgani bilan ular o'quvchiga hayotdagi o'rnnini his qilishga, ularni faol qo'llashga ijodkorligini oshirishga yordam bermasa, bunday bilim samarasiz bo'ladi. Buyuk mutafakkirlardan biri Arastu shunday degan ekan: - “....Aql bilimda emas, balki uni qo'llashda namoyon bo'ladi”.

### Interfaol darsning tuzilishi

| Dars etaplari        | Vaqt, % | Metodik maqsad   | Namunaviy metodikalar   |
|----------------------|---------|--|---|
| 1-etap               | 5       | Diqqatni jalb qilish,<br>ushbu mavzuga qiziqish uyg'otish      | <ul style="list-style-type: none"> <li>• “Mikrofon”</li> <li>• “Aqliy hujum”</li> </ul> |
| Mavzuni e'lon qilish | 5       | Dars natijasida o'quvchilar nimaga erishishlarini tushuntirish |   |

|   |    |  |  |
|---|----|--|--|
| 3-etap<br>Zarur<br>ma'lumotlarni<br>yetkazish | 5  | O'quvchilargi nima<br>qilishlari kerakligini<br>tushuntirish | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Uyga vazifa prezentatsiyasi</li> <li>• Tarqatma materiallar bilan tanishish</li> <li>• Mini-ma'ruza</li> </ul>                      |
| 4-etap<br>Interfaol vazifa                    | 60 | Mavzuni o'zlashtirish  | <ul style="list-style-type: none"> <li>• "Akvarium"</li> <li>• "Press"</li> <li>• Munozaralar</li> <li>• Seminar</li> <li>• "Mikrofon"</li> <li>• Kichik guruqlar</li> </ul> |
| 5-etap<br>Xulosalar<br>chiqarish              | 25 | O'zlashtirilgan<br>mavzuni<br>mustahkamlash                  | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Katta guruh</li> <li>• Ijodiy vazifa</li> <li>• "Loyiha"</li> <li>• "Press"</li> </ul>  |

Ushbu sxemedagi vaqtning taqsimlanishini shartli ravishda qabul qilish kerak, o'qituvchining xohishi yoki darsning xususiyatlarini inobatga olib, darsning u yoki bu etaplarini qisqartirish yoki uzaytirish mumkin, biroq barcha sanab o'tilgan dars etaplari saqlanib qolinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Interfaol usullarni darsning barcha etaplarida qo'llash mumkin, ularning ko'pchiligi universaldir va ko'pgina fanlarni o'rganishga mos keladi. Interfaol darslar o'quvchilarning an'anaviy darslarda o'zlashtira olmaydigan bilimlarini egallashga yordam beradi, ularning o'zi tanlash imkoniga ega bo'lishadi va darslarda jonkuyarlikni namoyon etadi.

Interfaol dars metodlaridan biri sifatida juftlik yoki guruh kabi usullarni ko'rsatish mumkin. Bunda o'zlashtirishi ko'chsizroq bo'lgan o'quvchiga uning sherigi yoki butun guruh yordam ko'rsatadi. Bunda barcha o'quvchilar dars jarayoniga jalgan etiladi.

Bilim darajasi va hajmini tekshirish uchun ko'pincha "karusel" usulini qo'llash mumkin. Bu usulni o'tkazish texnologiyasi quyidagidan iborat: o'quvchilar ikki aylana (ichki va tashqi) shaklda joylashtiriladi. Ichki aylanada o'quvchilar jilmasdan turishadi, tashqaridagilari esa har 30 sekundda joylarini almashtirib

turishadi. O‘quvchilar oldindan savollar tuzib, qog‘ozlarga yozib qo‘yishadi. Dars paytida o‘quvchilar bir-birlariga savol berishadi va to‘g‘ri javob berilganda o‘quvchi muallifdan qog‘ozchani oladi. Dars oxirida qog‘ozlar soni hisoblanib, mini-o‘yin g‘olibi aniqlanadi.

Murakkabroq muammolarni jamoa bo‘lib yechish kerak bo‘lganda, “kichik guruuhlar” usulini qo‘llash mumkin. Buning uchun sinfni 3-5 ta o‘quvchilardan iborat guruhlarga bo‘lish kerak. Guruhdagi har bir o‘quvchi muayyan mavqega ega bo‘ladi. Har qaysi guruh bitta vazifani olib uni bajaradi. Oxirida g‘olib bo‘lgan guruhnini albatta taqdirlanadi.

Interfaol doska bilan ishlashning ustunligi quyidagilardan iborat:

1. Materilning aniq, samarali va dinamik ravishda yetkazilishi natijasida o‘quvchilar mupakkabroq g‘oyalarni tushunishni boshlaydi.
2. Modellashtiruvchi muhit ob’ektlar, hodisa va xossalarning modellari asosidagi vizual loyihalash yo‘li bilan keng qamrovli vazifalarni yechishga imkon beradi.

Natijada dars vizual materiallarning qo‘llanishi evaziga yanada samaraliroq bo‘ladi. Vizual material juda yorqin, obrazli hamda tahlil qilish uchun yaroqli bo‘lishi kerak. Materiallarning har xil turlari: surat, plakat, matnlar, voqeа, sxemalar, diagrammalar birgalikda taqdim etiladi. Interfaol doskalar hisobiga o‘quvchilar yirik rangli suratlar va diagrammalarni ko‘rish mumkin va ularni turli yo‘nalishlarda harakatlantirish mumkin. Interfaol doskalarning qo‘llanishi elektron materiallar: interfaol plakatlar, testlar, interfaol prezентatsiyalarning metodik bazasining yaratilishini taqozo etadi.

### **Adabiyotlar**

1. Кагермазова Л.Ц., Масаева З.В., Калманова Ц.А. Диалог в современном образовании как технология формирования толерантности детей// В сборнике: Искусство - диалог культур. Сборник материалов VI Международной научнопрактической конференции. 2020. С. 240-247.
2. Атоев Э. Х., Бозорова У. Р. ХИМИЧЕСКИЙ ЭКСПЕРИМЕНТ-ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ЭТАПОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБУЧЕНИЯ //Современная наука: проблемы и пути их решения. – 2015. – С. 81-83.
3. Савриев Ш. М., Атоев Э. Х. РАЗРАБОТКА И ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ТЕСТОВ В УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС

//Научно-технический прогресс: актуальные и перспективные направления будущего. – 2015. – С. 26-28.

4. Рождественская, Н.А. Девиантное поведение и основы его профилактики у подростков. Учебное пособие/Н.А.Рождественская. - М.: Генезис, 2018. - 211 с.

5. Фомина, А.Б. Ранняя профилактика девиантного поведения детей и подростков: учебное пособие/ А.Б.Фомина. - М.: Психология, 2015. - 128 с.

6. Атоев Э. Х., Гайбуллаев Х. С. АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ДИДАКТИЧЕСКОГО ТЕСТИРОВАНИЯ //ИНОВАЦИИ, КАЧЕСТВО И СЕРВИС В ТЕХНИКЕ И ТЕХНОЛОГИЯХ. – 2014. – С. 22-25.